

SHART ERGASH GAPLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI KLASSIFIKATSIYASI

Rahmatova Mohinabonu Olim qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on Filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili Yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: rahmatovamohina218@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada shart ergash gaplar haqida so'z yuritilib, ular haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, shart ergash gaplarni o'zbek va ingliz tilidagi vazifasini aniqlanadi. Bu ikkala tildagi shart ergash gaplarni bir-biriga qiyoslanadi. Ulardagi farqli va o'xshash tomonlar ya'ni ular qanday bog'lovchilar bilab birga bog'lanib shart ergash gapni hosil qiladi, aynan shu tomonlarga ham e'tibor qaratiladi, o'rganiladi. Hamda bu ikkala tildagi shart ergash gaplarni nimalar vositasida hosil bo'lishi haqida so'z yuritiladi. O'zbek va ingliz tilida shart ergash gaplarning qanday turlari borligiga ham alohida to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: semantika, predikativ munosabat,

Annotation: in this article, the condition is mentioned about adverbs and information about them is provided. The condition also determines the function of adverbs in Uzbek and English. This condition in both languages compares adverbs to each other. The different and similar sides in them are that they are connected together by knowing what kind of conjunctions the condition forms an adverb, it is these sides that are also focused on, will be studied. And it is said about what the condition in both languages is formed by means of adverbs. In Uzbek and English, the condition is also highlighted what types of adverbs are

Keywords: semantics, predicate

Shart ergash gaplarning o'zbek va ingliz tilidagi klassifikatsiyasi O'zbek tilida shart ergash gaplarning ifodalanishi

Shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga shart semantikasini ifodalovchi qo'shma gaplar mujassamlanadi.

Shart ergash gaplar bosh gapda anglashilgan ishharakatning qanday shart bilan yuzaga kelganini, yuzaga kelishi mumkinligini bildiradi.



Shart ergash gapning asosiy grammatik belgisi uning kesimining shart fe'li orqali ifodalanishidir. Ammo bu belgiga qarab muayyan qurilmalarni shart ergash gap deb hukm chiqarib bo'lmaydi, chunki shart fe'li boshqa ergash gaplarning kesimi bo'lib kelishi mumkin. Shu sababli ham shart ergash gaplarni belgilashda ergash gap qurilmalarining mazmuniga, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosiga e'tibor berish talab etiladi.

Shart fe'li boshqargan qurilmalarning ergash gap bo'lishi uchun tarkibida o'z egasi bo'lishi kerak (egasi ma'lum gaplar bundan mustasno), shundagina predikativ munosabat, hukm yuzaga chiqadi. Tarkibida ega qatnashmagan, egasi umumiy bo'lgan birikmalar shart

birikmalar, shartli oborotlar sanaladi. Shart ergash gapning kesimi fe'l kesim yoki ot kesim yoki ot kesim shaklida bo'ladi. Ot- kesim bo'lganda kesim shart fe'li shaklidagi bo'lmoq bog'lamasini bilan birikib keladi:

1. Agar qo'ylarni qayerga yashirganingni aytmasang, go'shtingni itlarim nimalaydi.
2. Hatto kechgacha molni pullab yuborsak, kechqurun pulingni qaytaraman.
3. Agar rozi bo'lsang, shu ish bo'yicha yaxshi maoshli ham, hatto uy olish imkoniyatlari ham boridi.

Shart fe'li logik jihatdan kelasi zamoni ifodalaydi. U har vaqt bosh gap kesimidan anglashilgan harakat-holatdan oldin ro'y beruvchi harakat-holatni ifodalaydi. Shuning uchun ham bosh gapning kesimi kelasi yok hozirgi-kelasi zamonda bo'ladi yoki, buyruq fe'li shaklida bo'ladi.

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda doimo bo'lib turadigan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan harakat-holatlar to'g'risida fikr yuritilgani uchun ham ko'p maqollar, aforizmlar shu xil qo'shma gaplar shaklida tuziladi: Olim bo'lsang, olam seniki. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi.

Shart fe'lining boshqa fe'l shakllaridan farqi shuki, bu fe'l shakli egasi bilan shaxsda moslashadi, shart fe'li har uchala shaxsda bo'lishi mumkin: Agar sen namozsiz taskin topmayotgan bo'lsang, o'qiyver xohlaganingcha, faqat birovlarini tinch qo'y.

Ergash gap mazmunidagi shart mazmunini yanada ta'kidlash va bosh gap mazmuni bilan qat'iy chegaralash uchun ergash gap kesimidan so'ng -mi, chi yuklamalari keltiriladi: Bordi-yu mashinani to'xtatadigan, shofyorni javobgarlikka tortadigan militsionerning o'zini qasddan urib yuqitib o'tsa-chi, unda nima bo'ladi? (A.Q.)



Shart ergash gaplardan anglashilgan harakat-holatning bajarilishi real sodir bo'lishi yoki real sodir bo'lmasligi mumkin. Shart ergash gaplarning real holatida ergash gapda bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berishi uchun shart sharoitning aniq ekani ko'rsatiladi:

1. Mabodo suvda zardoli oqmay qolsa, bolalar devordan bo'ylaydi.
2. Agar bu qumlar, irg'ayzorlar orasida adashilsa, umr bo'yi yurib ham chiqib ketib bo'lmaydi.

Real sodir bo'lmaydigan shart ifodalovchi shart ergash gap va bosh gaplarning kesimi tarkibida edi fe'li ishtirok etadi: Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichlab borishga to'g'ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim. (O.)

Shu tarzda irreal shart ifodalovchi ergash gaplar, bir tomondan, amalga oshishi mumkin bo'lmagan harakat-holatni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, ergash gapdan anglashilgan mazmun ro'y bermagan bo'lsa ham u yuzaga chiqishi mumkin bo'ladi. Shart ergash gaplardagi irreallik gaplarning umumiy mazmunidan, ayrim gap bo'laklarining ma'nolaridan ham anglashilib turadi. Bunday qo'shma gaplar so'zlovchining istagi, ikkilanishi, iltimosi, maslahati, murojaati kabi modal ma'nolarni ifodalash uchun bir vosita bo'ladi.

Shart ergash gaplar o'zining asosiy mazmunidan tashqari quyidagi ma'nolarni ham ifodalab keladi:

1. Istak, xohish ma'nosi bosh va ergash gapning kesimi shaklidan va umumiy kontekstdan sezilib turadi. Bunday hollarda ergash gapning kesimi buyruq-istak shaklida bo'ladi: Bahor kelsa, toqqa chiqardik.

2. Sabab-natija mazmuni shart ergash gapning bosh gapidan anglashiladi. Bu holda ergash gap mazmuni bosh gap mazmuni uchun sabab bo'ladi. Bu mazmun munosabati shart ergash gapning hamma turida ham ifodalanadi. Ammo bu mazmun munosabati ayrim ergash gaplarning kesimi ko'pincha –

r/- shaklli sifatdosh yoki aniqlik fe'li orqali ifodalanadi, yohud ot kesim bo'ladi. Ergash gap tarkibida mabodo, bordi-yu kai bog'lovchilar v kesimi sostavida –mi yuklamasi ham bo'lishi mumkin. Ergash gap kesimi shart fe'lidan bo'lsa, bosh kesimi –rdi shaklli fe'l orqali ifodalanadi.. Marasul, menga qara, agar Nasibani o'qishdan qoldirib, kurortga olib ketar ekansan, senday jiyanim yo'q. (A Q.).



4. Ayrim shart ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmuni chegaralaydi. Bu xil ergash gaplarning kesimi, asosan, sifatdoshdan bo'ladi: Agar dunyoda haqiqat bo'lganda, o'sha o'ringa men emas, sen o'tirishing kerakmasmidi?

5. Shart ergash gapli qo'shma gapning shunday turlari ham borki, ularda bosh gapdan anglashilgan mazmun ergash gapda ifodalangan mazmunga izoh beradi. Bu holda bosh gap tarkibida ergash gap mazmuniga teng keluvchi olmosh bu, uni kabi qo'llanadi: Agar bordiyu, o'lib qolsachi, buni xudodan, kasalning ajali yetganidan yoki kasalning eshonga bo'lgan ixlosining sustligidan va ununing —shakkokliligidan deb hisoblaydilar.

Ergash gap bosh gap tarkibidagi ayrim gap bo'lagining ma'nosini, xususiyatini izohlab kelis hi mumkin. Bu holda ko'pincha ergash gap ma'nosini izohlanayotgan bo'lakdan so'ng keladi: Pulemyot, agar u jasur odamning qo'lida bo'lsa, nimga qodir ekanini anglatadi.

Ko'pincha, ergash gapdagi shart ma'nosini yanada ta'kidlash uchun agar gar, basharti, bor diyu, mabodo, modomiki, koshki bog'lovchilari keladi: Madomiki, bizda shunday ko'z paydo

bilibdimi, bu safar payqaganimizdan bir narsa chiqmasa, yanagi safar payqaganimizda n chiqadi. (A Q.).

Shart ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin keladi. Agar ergash gap qo'shimcha izohmazmunida bo'lsa, bosh gapdagi biror bo'lakka alohida aha miyat berish zarur bo'lsa, ergash gap bosh gapning ana shunday bo'ladigan bosh gap orasida keladi: Bunaqa gap, traktor kelsa, z iyon qiladigan odamdan chiqadi. (A Q.)

Ingiliz tilida shart ergash gaplarning ifodalanishi:

SHART ERGASH GAPLAR (ADVERBIAL CLAUSES OF CONDITION)

Shart ergash gaplar bosh gap bilan if agar, unless agar ... — masa, provided (that), providing (that), on condition (that) shartda, sharoitda, agar ... sak, supposing (that), suppose (that) faraz qilganimizda kabi bog'lovchilar bilan bog'lanadi:

If I see him tomorrow, I shall ask him about it.

Agar men uni ertaga ko'rsam, men undan bu haqda so'rayman.



Bundan keyin qulaylik uchun «Shart ergash gapli qo'shma gap» atamasi o'rnida «shart gaplar» atamasini ishlatamiz. Shart ergash gaplar real shart gaplar va noreal shart gaplarga bo'linadi.

REAL SHART GAPLAR

1. Real shart gaplar agar gapirilayotgan shart-sharoit mavjud bo'lgan da amalga oshishi mumkin bo'lgan, real taxminni ifodalaydi. Buni ko'pincha kelasi zamondagi ehtimollik ham deyishadi va u kelasi zamonga nisbatan ishlatiladi. Real shart gaplarning bosh gapida Simple Future, ergash gapida esa, kelasi zamon o'rnida Simple Present ishlatiladi:

If the weather is fine tomorrow, we shall go to the country.

Agar ertaga havo yaxshi bo'lsa, biz qishloqqa boramiz.

2. Real shart ergash gaplarda Simple Present o'rnida should + V (fe'lining asosiy shakli) ishlatilishi mumkin va shu shart-sharoitning yuzaga chiqish ehtimolligini juda kamligini ifodalaydi:

If he should come, I shall ask him to wait.

Agar u kelib qolsa, men undan kutib turishini so'rayman.

3. Shart ergash gaplarda ba'zan will + V ishlatilishi mumkin. Bu yerda will yordamchi fe'l bolib kelmaydi, balki iltimosni ifodalaydi:

We shall be grateful if you will send us your catalogue of Diesel engines.

Agar siz o'zingizning dizel motorlaringizning kataloglarini jo'natsangiz, biz minnatdor bo'lardik.

4. Real shart gaplarda hozirgi va o'tgan zamondagi taxmin ham ifodalanishi mumkin:

If he is here, he is probably working in the library.

Agar u shu yerda bo'lsa, ehtimol u kutubxonada ishlayotgandir.

NOREAL SHART GAPLAR -(UNREAL CONDITIONALS — NOT TRUE)

Noreal shart gap ergashgan qo'shma gaplarda amalga oshishi dargumon, yuz berishi ehtimoldan uzoq bo'lgan ish-harakati ifodalanadi. Hozirgi zamon noreal shart gaplari va o'tgan zamon noreal shart gaplari mavjud.



HOZIRGI ZAMON NOREAL SHART GAPLAR

1. Hozirgi zamon noreal shart gaplar hozirgi va kelasi zamondagi ishharakatni ifodalaydi. Ularda (shart ergash gaplarda) fe'l Simple Past zamonda, bosh gapda esa could, might, should (1 shaxs birlik va ko'plikda), would (2 va 3-shaxs birlik va ko'plikda) fe'llari va fe'ning asosiy shakli (tosiz infi nitiv) ishlatiladi. Noreal shart gaplarda hamma shaxs va son uchun to be fe'lining were shakli ishlatiladi:

if + subject + { Simple Past were } + subject + should (would) + V

could + V

could

might

If I had the time, I would go to the movie with you this weekend.

Agar vaqtim bo'lganda haftaning oxirida siz bilan kinoga borardim.

O'TGAN ZAMON NOREAL SHART GAPLAR

1. O'tgan zamon noreal shart gaplar o'tgan zamondagi farazni ifodalaydi va shuning uchun ham uni amalga oshirish mumkin emas. O'tgan zamondagi noreal shart gapda ish-harakat Past Perfect zamonda, bosh gapida should (would, could, might) fe'lidan keyin Perfekt Infi nitiv (Have + P.P.) keladi:

If + subject + had + P.P. + subject + should (would) +

have

+

P.P.

could

might

If I had seen him yesterday, I should have asked him about it.

Agar men uni kecha ko'rganimda edi, men undan bu haqda so'ragan bo'lardim.

ARALASH NOREAL SHART GAPLAR

Ba'zan shart (shart ergash gapdagi ish-harakat) o'tgan zamonga taalluqli bo'lib, natijasi (bosh gapdagi ish-harakat) hozirgi zamonga taalluqli bo'lishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Bunday gaplar aralash shart gaplar deyiladi:

If you had worked harder last year, you would know English well now.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida shart ergash gaplar yuklama va qo'shimchalar qo'shish bilan hosil qilinsa, ingliz tilida esa bog'lovchi, yordamchi va modal fe'llar bilan hosil qilinadi **Ilova:**

Semantika- (yun. semantikos — bildiruvchi, ifodalovchi) — 1) til yoki uning bironbir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, fan) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; 2) turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; semasiologiya. Ayrim lugaviy

unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Binobarin, S.ning o'rganish ob'yekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir. S. fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o'tgan. Semantika axborot texnologiyalarda ham qo'llaniladi

Predikativ munosabat- Predikativlik (lot. praedicativus — tasdiqlovchi, qat'iy) — 1) zamonaviy mantiq fanida — belgilar va predmetlar o'rtasida ob'yektiv mavjud bo'lgan aloqalarni aks ettiruvchi asosiy tushunchalardan biri; 2) tilshunoslikda — gapni shakllantiruvchi sintaktik kategoriya bo'lib, gap mazmuniga ob'yektiv borliqning u yoki bu hodisasi haqida xabar berish xususiyatini baxsh etadi. Predikativlik, belgi (harakat, sifat va xususiyat) bilan predmetning zamon va maylda anglashiladigan o'zaro munosabatini ifodalaydi va shu tariqa gapni alohida fikrni shakllantiruvchi va u haqida xabar beruvchi birlikka aylantiradi (M-n, "Olma gulladi", "Doimo tinchlik bo'lsin!"). Modomiki, gap mazmunining borliqqa munosabati uni muayyan zamoniy va modal (real yoki irreal) darajaga qo'yishni taqozo qilar ekan, predikativlik ham ikki sintaktik kategoriyaning — zamon va maylning birligidan iborat bo'ladi. Ikki tarkibli gaplarda — kesim, bir tarkibli gaplarda esa ularning bosh bo'lagi predikativlikning ifodachisi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Aliev, K. Sodiqov." O'zbek adabiy tili tarixi"dan. (Universitet talabalari uchun darslik) Tosh. "O'zbekiston". 1994 y.
2. B.Abdurahmonov. S.Mamajanov "O'zbek tili va adabiyoti" (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) Tosh."O'zbekiston" 1995 y.
3. M.G'aprov,R.Qosimova "Ingliz tili grammatikasi" Tosh."Turon iqbol"2010-y 316-317-318-b
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

